

Ko'rgazma – natijalar nishoni

Natija va samaralarimizni bilish va tanishish uchun albatta, ko'rgazmalarga tashrif buyurishning hikmati katta. U yangi rejalarga turtki bo'lishi ham mumkinligini bilganlar albatta, bu mulohazaga befarq qarashmaydi. Joriy yilning 21 - 23 noyabr kunlari "O'zekspomarkaz"da "UzAgroExpo - 2018" 14 - xalqaro ko'rgazmasi tashkil etildi. "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti QXM kafedrasida assistenti B.Sarmisokov, "MF va T" kafedrasida dotsenti E. Farmonov, UTF kafedrasida assistenti N. Abdiyev hamda "T va A" kafedrasida assistenti A.Bozorboyev, fakultet Xotin - qizlar qo'mitasi raisasi N. Xoliqovalar rahbarligida fakultet talaba - yoshlari bilan ko'rgazmada ishtirok etib kelishdi. Ko'rgazma bevosita qishloq xo'jaligi sohasi yo'nalishida bo'lganligi uchun talabalarning ishtiroki ularga yangi bilim va yangi g'oya bergan bo'lsa ajab emas. Bu ko'rgazma talaba - yoshlarda qishloq xo'jaligi sohasida yangi g'oyalar, innovatsiyalar yaratishga chuqur fikrlashga undashini inkor etish qiyin. Ko'rgazmadan talabalarimiz juda katta taassurotlar bilan qaytishdi.



QXM fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.Raximov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov